РАЗВИТИЕ, РИСКИ, ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	964
<i>Бабаджанова Лола Шопулатовна, Срождиддинова Зарина Хайриддиновна</i>	
KOMPANIYALARNING FOND BOZORIDAGI ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRISH AHAMIYATI.....	970
<i>Mamataliyev Bobur Saidnazar o'g'li</i>	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA INTELLEKTUAL TA'MINOT ZANJIRI TEXNOLOGIYALARINING XALQARO TADBIRKORLIKDAGI O'RNI .....	977
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i>	
HUDUD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING INSTITUTSIONAL SALOHİYATI: NAZARIY TALQIN VA YAPONIYA, GERMANIYA, XITOIY TAJRIBASI .....	983
<i>Bekchanov Davron Masharipovich</i>	
O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH VA MEHNAT FAOLIYATI UNUMDORLIGINING IQTISODIY YUKSALISHDAGI O'RNI.....	988
<i>Anvarova Lobarxon</i>	
TURIZM SOHASIDA HAYOT SUG'URTASI TIZIMINING IQTISODIY-HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT .....	992
<i>J.Kamalova</i>	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O'TKAZISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI .....	999
<i>Annayev Abdurasul Abdurashidovich</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH ASOSIY YO'NALISHLARI.....	1004
<i>Nazarov Sanjar Nasridinovich</i>	
KORXONALARDA MARKETING MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI (BUXORO VILOYATI KORXONALARI MISOLIDA).....	1009
<i>Sirojov Oxunjon Odil o'g'li</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ISH BILAN BANDLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARI .....	1015
<i>Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li</i>	
ERKIN IQTISODIY ZONALAR UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV VA INVESTITSIYA MONITORINGINING MUALLIFLIK MODELI .....	1020
<i>Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna</i>	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI .....	1025
<i>Kunduzova Kumrixon Ibragimovna, Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li</i>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ .....	1031
<i>Камилова Наргиза Абдукажоровна</i>	
THE ADDITIONALITY GAP: EVALUATING THE SYNERGY BETWEEN GREEN FINANCE AND MACROECONOMIC STABILITY IN EMERGING ECONOMIES .....	1036
<i>Ataxanov Umidbek Olimovich</i>	



АХОЛИНИ ИJTIMOИЙ НИМОЙА ҚИЛИШ ТИЗИМИДА СУН'ИЙ ИНТЕЛЛЕКТ: О'ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI MISOLIDA JORIЙ ETISH IMKONIYATLARI VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI .....	1042
Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich	
OROL BO'YI MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING IJTIMOИЙ-IQTISODIЙ OQIBATLARI VA ZAIF AHOLI QATLAMLARIGA TA'SIRI .....	1047
Madenova Elmira Nzamatdinovna	
УЛУЧШЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР .....	1052
Эргашев Мухиббек Аслам угли	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	1057
Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li	
BARQAROR IQTISODIЙ O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI JORIЙ ETISH IMKONIYATLARI .....	1062
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
ПРЕФЕРЕНЦИИ И РИСКИ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС, ОДИН ПУТЬ» .....	1067
Wang Jianhong, Наров Улугбек Ирискулович	
DAVLATNING IQTISODIЙ SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	1071
Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI .....	1075
Quralov Nurxissa Iles o'g'li	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIЙ-IQTISODIЙ MEХANIZMI.....	1082
Haydarov Jasur Baxodir o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI.....	1087
Mamatov Xabibulla Mamatovich	
O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMI BRENДИNI SHAKLLANTIRISHDA MUQADDAS QADAMJOLARNING MARKETING SALOHİYATI .....	1091
Turayev Ziyadulla Norsoatovich	
ASOSIЙ KAPITALGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	1095
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNING TARKIBI, TASNIFI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1103
Daminova Madinaxon Bahromjon qizi	
TURIZM TURLARINI DIVERSIFIKATSİYALASHDA ZAMONAVIЙ TENDENSIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1110
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
O'ZBEKISTONDA OBLIGATSİYALAR BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIЙ AHAMIYATI .....	1117
Muxammedova Zarina Murodovna	
SUG'ORILADIGAN YERLARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING IQTISODIЙ MEХANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI .....	1121
Sultonov Xudoyshukur G'ayratovich	
IQTISODIЙ RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIЙ TAJRIBASI.....	1126
Xaydarov Ravshan Xikmatullaevich	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1131
He Xiaoqu, Уркинбаев Т. А.	
РОЛЬ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИК СТРАН ПЕРЕХОДНОГО ТИПА .....	1135
Qian Xuanhong, Наров Улугбек Ирискулович	
"YASHIRIN IQTISODIYOT"NING ULUSHINI QISQARTIRISHDA AUDITNING O'RNI .....	1140
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



TRANSFERRING PORT MULTIMODAL COORDINATION CAPABILITIES ACROSS INSTITUTIONAL CONTEXTS: LOCALIZATION MECHANISMS IN THE CHINA-UZBEKISTAN LOGISTICS CORRIDOR.....	1146
<b>Mu Zhendi</b>	
TURIZM XIZMATLARINING SIFATINI OSHIRISH ORQALI MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	1156
<b>Z.T. Bakayev</b>	
ESG-ПРИНЦИПЫ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ПЕРВЫХ ИНИЦИАТИВ К ФОРМИРОВАНИЮ УСТОЙЧИВОЙ МОДЕЛИ ОТРАСЛИ.....	1161
<b>Аблаева Валентина Борисовна</b>	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI KENGAYTIRISHNING O'RNI .....	1169
<b>Saparov Murod Irgashovich</b>	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: EKONOMETRIK TAHLIL.....	1173
<b>Qo'ziboyev Behzod Hamidovich</b>	
"2025-YIL YAKUNI BO'YICHA O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLARI TAHLILI" .....	1177
<b>Ergashev E'zozbek Umirzakovich, Vaxabov A.V.</b>	
KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI .....	1183
<b>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA AHOLI MIGRATSIYASI TAHLILI (2010-2024 YILLAR).....	1188
<b>Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich</b>	
ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАН .....	1192
<b>Аман Тургунович Кенжабаев, Бахтияр Бадриддинович Садриддинов</b>	
SANOAT KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIY FAOLIYATNI BAHOLASH USULLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1200
<b>Zuxurova Nargiza Abdusattarovna</b>	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IPOTEKANI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI.....	1204
<b>Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich</b>	
XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARINING TAHLILI.....	1212
<b>Rajapov Shuxrat Zaripbayevich</b>	
SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI .....	1221
<b>Sharofitdinov Shaxzod Damin o'g'li</b>	
TOSHKENT SHAHRIDA EKOLOGIK HOLAT YOMONLASHUVINING TASHQI INVESTITSIYALARGA TA'SIRI.....	1228
<b>Poyonov Jamshid</b>	
RAQAMLI TURIZM PLATFORMALARIDA KONTENT TAHLILI HAMDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI .....	1232
<b>Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM SOHASIDA INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASH TENDENSIYALARI.....	1240
<b>Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich</b>	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIRKULAR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1246
<b>Utegenov Ilham Baxtiyarovich</b>	
GO'SHT YETISHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA) .....	1250
<b>Otabekov Javdod Nurulla o'g'li</b>	



O'ZBEKISTONDA TASHQI AUDIT TIZIMINING RIVOJLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	1256
Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF THE DEVELOPMENT OF SEPARATE SEGMENTS ... OF REGIONAL BUSINESS TOURISM	1261
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING XUSUSIYATLARI .....	1267
Tabayev Azamat Zaripbayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI .....	1272
Babanazarova Gulzar Ziatdinovna	
EKOLOGIK SOLIQLARNI HISOBLASH VA UN DARISH METODOLOGIK ASOSLARINI YARATISH .....	1276
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIK SANOAT ZONALARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY AHAMIYATI .....	1281
Fayziyeva Iroda Shuhrat qizi	
CAPITAL ADEQUACY AND FINANCIAL STABILITY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN .....	1286
Shokhrukh Komilov	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TURIZM SOHASINI STATISTIK BAHOLASH METODOLOGIYASI .....	1291
Jumanova Zilola Tuychiyevna, Sur'atova Mohiraxon Shavkat qizi	
AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHINI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	1296
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA HUDUDIY TAMOYILLARNING O'RNI .....	1300
Abduraimov Dilshod Muratkulovich	
ENHANCING STRATEGIC MANAGEMENT IN TOURISM SERVICE ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: A SWOT-BASED ANALYSIS .....	1304
Mustafakulova Sitara Shukhratovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA AXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MOLIYAVIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO'NALISHLARI .....	1310
Maxmudov Abduxalil Abduraxmon o'g'li	
O'ZBEKISTON AHOLISI JINSI NISBATINING HUDUDIY VA YOSH FARQLANISHINI STATISTIK TADQIQI .....	1314
Toshmatov Zoyir Xudayberganovich, Begalova Durdona Baxodirovna	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA MUHITNI YAXSHILASH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI .....	1321
Roza Xudaybergenova	



# MAMLAKATDA INVESTITSIYA MUHITNI YAXSHILASH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISH YO‘LLARI

Roza Xudaybergenova

TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning  
ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi tayanch doktoranti

Email: [rozaakhmedovna011@gmail.com](mailto:rozaakhmedovna011@gmail.com)

ORCID:0009-0008-5671-0999

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mamlakatda investitsion muhitni yaxshilash asosida investitsion jozibadorlikni oshirish masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Investitsion jozibadorlikka ta’sir etuvchi omillar orasida soliq siyosatining o’rni alohida baholanib, uning investitsiya faolligiga ta’sir mexanizmlari ochib berilgan. Tadqiqot jarayonida investitsion muhitning holati, investorlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, soliq yukini maqbullashtirish, soliq imtiyozlarining investitsiyalarni rag‘batlantirishdagi roli hamda soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish zarurati tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida mamlakatda investitsion jozibadorlikni oshirish soliq siyosatini samarali tashkil etish, investorlarga berilayotgan preferensiyalarni oqilona qo‘llash, soliqqa tortish tizimining barqarorligi va shaffofligini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq ekani asoslab berilgan. Shuningdek, investitsion muhitni yanada yaxshilash va iqtisodiyotga investitsiyalar oqimini ko‘paytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** investitsion jozibadorlik, investitsion muhit, soliq siyosati, soliq yuklamasi, soliq imtiyozlari, soliq mexanizmlari, investitsiya faolligi, investorlar huquqlari, iqtisodiy islohotlar, institutsional omillar, investitsion rag‘batlantirish.

**Abstract.** This article scientifically examines the issues of enhancing investment attractiveness by improving the country's investment environment. Among the factors affecting investment attractiveness, the role of tax policy is given special consideration, and its mechanisms of influence on investment activity are revealed. The study analyzes the state of the investment environment, the conditions being created for investors, the optimization of the tax burden, the role of tax incentives in promoting investments, and the need to improve tax administration. The study demonstrates that increasing the country's investment attractiveness is closely linked to effectively structuring tax policy, the prudent application of investor preferences, and ensuring the stability and transparency of the tax system. Additionally, scientific and practical recommendations have been developed aimed at further improving the investment environment and increasing the flow of investment into the economy.

**Key words:** investment attractiveness, investment environment, tax policy, tax burden, tax incentives, tax mechanisms, investment activity, investors' rights, economic reforms, institutional factors, investment promotion.

**Аннотация.** В статье научно обоснованы вопросы повышения инвестиционной привлекательности путем улучшения инвестиционного климата страны. Среди факторов, влияющих на инвестиционную привлекательность, особое внимание уделяется роли налоговой политики, раскрываются механизмы ее воздействия на инвестиционную деятельность. В исследовании анализируются состояние инвестиционной среды, условия, создаваемые для инвесторов, оптимизация налогового бремени, роль налоговых льгот в стимулировании инвестиций, а также необходимость совершенствования налогового администрирования. Исследование показывает, что повышение инвестиционной привлекательности страны тесно связано с эффективной организацией налоговой политики, разумным применением льгот для инвесторов, обеспечением стабильности и прозрачности налоговой системы. Кроме того, разработаны научно-практические рекомендации, направленные на дальнейшее совершенствование инвестиционного климата и увеличение притока инвестиций в экономику.

**Ключевые слова:** инвестиционная привлекательность, инвестиционная среда, налоговая политика, налоговая нагрузка, налоговые льготы, налоговые механизмы, инвестиционная деятельность, права инвесторов, экономические реформы, институциональные факторы, стимулирование инвестиций.



## KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, raqobatbardoshligini oshirish va investitsiya faolligini kuchaytirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda investitsion muhitning qulayligi va investitsion jozibadorlik darajasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki mamlakatga kirib kelayotgan ichki va tashqi investitsiyalar ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu bois mamlakatda investitsion muhitni yaxshilash, ma'muriy to'siqlarni qisqartirish, huquqiy kafolatlarni mustahkamlash va investorlar uchun barqaror iqtisodiy shart-sharoit yaratish masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada soliq siyosatining ahamiyatini yoritish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki mamlakat investitsion jozibadorligiga soliq siyosati va unda olib borilayotgan islohotlar ichki va tashqi investorlarning qarorlariga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsion jozibadorlik masalasi iqtisodiy adabiyotlarda ko'p omilli kategoriya sifatida talqin qilinadi. Xalqaro tadqiqotlarda investitsiya oqimlariga bozor sig'imi, makroiqtisodiy barqarorlik, institutsional sifat, huquqiy kafolatlar, infratuzilma, mehnat resurslari sifati hamda davlatning investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash siyosati kuchli ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi. UNCTADning World Investment Report 2024 hisobotida jahon bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimlari 2023-yilda sust bo'lgani, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa yangi sanoat va infratuzilma loyihalariga investitsiyalar pasaygani ko'rsatiladi. Bu holat investitsion muhit sifati, investorlar uchun qulay tartib-taomillar va davlat boshqaruvi samaradorligi yanada muhim omilga aylanganini anglatadi.

Jahon banki yondashuvida investitsiya muhiti korxonalarining investitsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish va ishlab chiqarishni kengaytirish qarorlariga ta'sir qiluvchi siyosiy, institutsional va infratuzilmaviy sharoitlar majmui sifatida izohlanadi. Bankning investitsion raqobatbardoshlik bo'yicha tadqiqotlari siyosiy barqarorlik, makroiqtisodiy ishonchlilik, normativ-huquqiy aniqlik va tartibga solish sifati investor qarorlarida hal qiluvchi omillar ekanini ko'rsatadi.

Nazariy jihatdan, J. Dunningning eklektik paradigmasi investitsiya qarorlarini tushuntirishda eng ko'p murojaat qilinadigan yondashuvlardan biridir. Unga ko'ra, xorijiy investitsiyalar mamlakatda joylashuv ustunliklari mavjud bo'lganda faolroq kirib keladi; bunday ustunliklarga bozor hajmi, resurslar, logistika, huquqiy himoya va institutsional muhit kiradi. Mazkur yondashuv investitsion jozibadorlikni faqat soliq imtiyozlari bilan emas, balki kengroq investitsion ekotizim bilan bog'lab tahlil qilish zarurligini asoslaydi<sup>1</sup>.

Empirik adabiyotlarda investitsion jozibadorlikning determinantlari keng o'rganilgan. E. Asiedu rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiyalar oqimlariga infratuzilma, ochiqlik darajasi, kapital qaytimi va makroiqtisodiy sharoit sezilarli ta'sir qilishini ko'rsatadi<sup>2</sup>. Uning xulosalari shuni bildiradiki, investitsiyalarni jalb qilish uchun faqat preferensiyalar emas, balki ishlab chiqarish va logistika xarajatlarini pasaytiruvchi muhit ham muhimdir.

Jahon bankining O'zbekiston bo'yicha Enterprise Surveys 2024 profili biznes muhiti bilan bog'liq amaliy to'siqlarni ko'rsatib beradi. Bunday tadqiqotlar investitsion jozibadorlikni oshirish uchun korxonalar duch kelayotgan real muammolarni — elektr ta'minoti, moliyalashtirish, raqobat muhiti, soliqqa tortishdagi yuklama yoki ma'muriy tartib-taomillarni — aniqlashda muhim empirik asos bo'lib xizmat qiladi<sup>3</sup>.

Investitsion jozibadorlikni oshirishning asosiy yo'llari makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, huquqiy kafolatlarni kuchaytirish, davlat boshqaruvi sifatini yaxshilash, zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish, tartibga solish tartib-taomillarini soddalashtirish, investorlar uchun shaffof va prognoz qilinadigan institutsional muhit yaratish hamda investitsiyalar sifatiga alohida e'tibor qaratish bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlar investitsion jozibadorlikning soliqqa tortish tizimi samaradorligi bilan ham bevosita aloqador ekanini ko'rsatmoqda. Zero, soliq siyosati nafaqat davlat budjeti daromadlarini shakllantiruvchi vosita, balki investitsiya faoliyatini rag'batlantiruvchi, tadbirkorlik muhitini yaxshilovchi va kapital harakatini faollashtiruvchi muhim strategik mexanizm hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, deduksiya, induksiya, monografik kuzatuv, guruhlashtirish usullaridan foydalanilgan.

1 Dunning, J.H. *The Eclectic Paradigm as an Envelope for Economic and Business Theories of MNE Activity* (2000)

2 Asiedu, E. *On the Determinants of Foreign Direct Investment to Developing Countries* (2002)

3 <https://www.enterprisesurveys.org/content/dam/enterprisesurveys/documents/country/Uzbekistan-2024.pdf>




## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida investitsion jozibadorlikni oshirish va qulay investitsiya muhitini shakllantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida investorlar uchun ishonchli, uzoq muddatli va barqaror shart-sharoit yaratish, soliq yukini kamaytirish, soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish hamda investorlar huquqlarini kafolatlash zarurligini bir necha bor ta'kidlagan. Xususan, 2017-yilgi Murojaatnomada soliq tizimi investorlar nuqtayi nazaridan uzoq muddat davomida aniq va tushunarli bo'lishi kerakligi qayd etilgan bo'lsa, 2024-yilgi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqda xorijiy sarmoyadorlarga dividend soliqlari bo'yicha imtiyozlar, yer ijarasi muddatini uzaytirish va investor huquqlarini mustahkamlash bo'yicha aniq choralar ilgari surilgan.

Mazkur yondashuvlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2018 yildagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli<sup>4</sup> Farmoni, "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5495-sonli<sup>5</sup> Farmoni, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli<sup>6</sup> Qonuni va "Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1014-sonli<sup>7</sup> Qonunida o'z normativ-huquqiy ifodasini topgan.

Investitsiya iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi eng muhim omillardan biridir. Moliyaviy resurslarning turli aktivlar, hududlar, tarmoqlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar kesimida yo'naltirilishi natijasida asosiy kapital tarkibi kengayadi va modernizatsiya qilinadi, ishlab chiqarish diversifikatsiyalanadi, mahsulot va xizmatlar sifati oshadi, shuningdek, istiqbolli loyihalar hamda strategik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun zarur iqtisodiy zamin yaratiladi.

Investitsiyalar hajmi va ularning tarmoqlar hamda hududlar bo'yicha taqsimlanishi nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, balki jamiyatning barqaror rivojlanish ehtiyojlarini qondirish bilan ham uzviy bog'liqdir. Chunki barqaror rivojlanish iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanat o'rtasidagi mutanosiblikni taqozo etadi (1-rasm).



1-rasm. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi, mlrd.so'm<sup>8</sup>

Respublika miqyosida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmining izchil o'sib borganligi aks etgan. Xususan, 2010-yildagi 16 463,7 mlrd so'mlik ko'rsatkich 2024-yilda 507 490,2 mlrd so'mga yetib, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi bir necha barobarga oshganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2017-

4 <https://lex.uz/uz/docs/-3802378>

5 <https://lex.uz/uz/docs/-3845273>

6 <https://lex.uz/ru/docs/-4664142>


7 <https://lex.uz/ru/docs/-7279923>

8 Rasm muallif tomonidan tayyorlangan



yildan keyin investitsiyalar hajmining tezlashgan sur'atlarda ortishi kuzatilib, 2023–2024-yillarda bu jarayon yanada faollashgan. Mazkur holat respublikada investitsion faoliyat ko'lami kengayib borayotganini, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarini modernizatsiya qilishga yo'naltirilgan mablag'lar salmog'i ortganini ifodalaydi.


Bu ko'rsatkichning yillar kesimida o'sish sur'atlarini ko'rib o'tishimiz ham mumkin (2-rasm).



2-rasm. Respublika miqyosida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o'sish sur'ati (% foizlarda)<sup>9</sup>

Grafik ma'lumotlariga ko'ra, 2010–2024-yillar davomida respublika miqyosida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o'sish sur'atlarida asosan ijobiy dinamika kuzatilgan. 2017–2019-yillarda o'sish sur'atlarining sezilarli darajada jadallashgani investitsion faollikning kuchayganini ko'rsatadi. 2020-yilda esa keskin pasayish qayd etilib, bu davrda investitsiya jarayonlarida sekinlashuv yuzaga kelgan. Shundan so'ng 2021–2024-yillarda ko'rsatkichlarning bosqichma-bosqich tiklanishi va yana yuqori o'sish sur'atlariga chiqishi respublikada investitsion muhitning qayta faollashganidan dalolat beradi.

Investitsiya faoliyatining ustuvor yo'nalishlari, ko'rishimiz mumkinki, odatda davlatning iqtisodiy siyosati doirasida shakllantiriladi. Mazkur siyosat qulay investitsiya muhitini yaratish, iqtisodiyotda yuqori o'sish salohiyatiga ega bo'lgan nuqtalarni jadallashtirish, shuningdek, investitsiya jarayonlarini faollashtirishga xizmat qiluvchi institutsional, huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlarni takomillashtirishga qaratiladi (3-rasm).



3-rasm. Yalpi chki mahsulot o'sish sur'ati, % foizda<sup>10</sup>

9 Rasm muallif tomonidan tayyorlangan

10 Rasm muallif tomonidan tayyorlangan



2010–2025-yillar davomida mamlakat YaIM o'sish sur'atlari asosan barqaror ijobiy tendensiyani namoyon etgan. 2010–2015-yillarda iqtisodiy o'sish yuqori darajada (107–108% atrofida) saqlanib, iqtisodiyotning izchil rivojlanishini aks ettiradi. 2016–2017-yillarda o'sish sur'atlarida biroz pasayish kuzatilgan bo'lsa, 2018–2019-yillarda yana tiklanish qayd etilgan. 2020-yilda keskin pasayish (101,6%) yuz berib, bu tashqi iqtisodiy omillar va global inqiroz, pandemiya ta'siri bilan izohlanadi. Shundan so'ng 2021-yilda iqtisodiy o'sish sezilarli darajada tiklanib, 108,2%ni tashkil etgan. 2022–2025-yillarda esa o'sish sur'atlari barqarorlashib, 106–107% oralig'ida davom etgan bo'lib, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanish tendensiyasini ifodalaydi.

Bu ko'rsatkichlarning ijobiy tomonga o'zgarishida yurtimizda olib borilayotgan soliq islohotlari ham asosiy omillardan biri hisoblanadi. Soliq islohotlari har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular investitsion jozibadorlikni shakllantirishda bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Chunki investor uchun eng muhim omillardan biri bu faoliyat yuritilayotgan hududdagi soliq yukining darajasi, soliq tizimining barqarorligi, uning soddaligi va prognoz qilinuvchanligidir. Shu jihatdan, soliq islohotlari investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va kapital oqimini ko'paytirishning muhim institutsional vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Soliq tizimining barqarorligi va prognoz qilinuvchanligi xorijiy va mahalliy investorlar uchun alohida ahamiyatga ega. Investor uzoq muddatli qaror qabul qilishda kelajakdagi xarajatlar va daromadlarni aniq hisoblashga intiladi. Agar soliq siyosati tez-tez o'zgarib tursa yoki huquqiy kafolatlar yetarlicha mustahkam bo'lmasa, investitsion qarorlar kechiktiriladi yoki boshqa bozorga yo'naltiriladi. Shu bois soliq qonunchiligida izchillikni ta'minlash, investorlar uchun kafolatli soliq sharoitlarini yaratish va soliq siyosatini uzoq muddatli strategik maqsadlar bilan uyg'unlashtirish zarur.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston misolida investitsion jozibadorlikni oshirish makroiqtisodiy, institutsional va tarkibiy islohotlar bilan bir qatorda soliq siyosatini takomillashtirish bilan ham uzviy bog'liq holda olib borilishi lozim. Xususan, xususiy sektor faoliyatini kengaytirish, hududlarda tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalarni rag'batlantirish, eksportbop va innovatsion loyihalar uchun maqsadli soliq preferensiyalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, energiya va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, sud-huquq kafolatlarini mustahkamlash, mulk huquqi daxlsizligini ta'minlash hamda hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish soliq islohotlari bilan uyg'unlashgandagina yuqori natija beradi.

Bundan tashqari, investitsion jozibadorlikni oshirishda soliq imtiyozlarining o'zi yetarli emas, balki ularning samaradorligi, manzilliligi va iqtisodiy natijadorligi ham muhimdir. Ilmiy yondashuvlarga ko'ra, soliq imtiyozlari qisqa muddatli kapital oqimini jalb qilishi mumkin, biroq uzoq muddatli investitsion barqarorlikni ta'minlash uchun shaffof soliq ma'murchiligi, teng raqobat muhiti, korrupsiyaviy omillarning qisqarishi va institutsional ishonch darajasining oshishi hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Demak, soliq siyosati investitsion jozibadorlikni oshirishda alohida vosita emas, balki umumiy investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qiluvchi tizimli islohotlarning tarkibiy qismi sifatida qaralishi zarur.

Natijada, mamlakatda investitsion jozibadorlikni oshirish siyosati kompleks xarakterga ega bo'lib, u makroiqtisodiy barqarorlik, huquqiy ishonchlik, zamonaviy infratuzilma, samarali davlat boshqaruvi va, albatta, adolatli hamda rag'batlantiruvchi soliq siyosati uyg'unligida shakllanishi lozim. Aynan shunday yondashuvga investorlar uchun qulay biznes muhitini yaratib, iqtisodiyotga uzoq muddatli va sifatli investitsiyalar oqimini ko'paytirish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNCTAD. World Investment Report 2024: Investment Facilitation and Digital Government.
2. World Bank. Global Investment Competitiveness Report 2019/2020.
3. OECD. FDI Qualities Policy Toolkit.
4. Dunning, J.H. The Eclectic Paradigm as an Envelope for Economic and Business Theories of MNE Activity (2000).
5. Asiedu, E. On the Determinants of Foreign Direct Investment to Developing Countries (2002).
6. Globerman, S., Shapiro, D. Governance Infrastructure and US Foreign Direct Investment (2003).
7. MIGA. World Investment and Political Risk (2011).
8. World Bank. Enterprise Surveys: Uzbekistan 2024 Country Profile.
9. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration (2025).
10. EBRD. Transition Report 2024–25: Uzbekistan va Uzbekistan Country Strategy.
11. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida (2019).
12. U.S. Department of State. 2024 Investment Climate Statement: Uzbekistan.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 3

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---